

YOSHLARNING IJODIY PARVOZLARI

Iste'dod va mahorat izlanuvchilikni talab qiladi. Bugun O'zbekiston yoshlari ko'p sohalarda o'zlarini namoyon etib, jahon marralariga chiqishmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham iste'dodli talaba-yoshlar tahsil olib, ularning mahoratini yanada shakllantirish, xalqqa namoyon etish muhimdir. Bugun O'ZMTRK "Yoshlar" telekanalining "Yangi kun" ko'ngilochar jonli shou-dasturida institutning "Xalq ijodiyoti" fakulteti "Ashula va raqs" 3-kurs talabasi **Shahzod Safarov** jonli ijroda qo'shiqlar kuyladi.



"Mening o'qishimda va ijodiy faoliyatimda ustozim Mirshod

Elovning o'рни beqiyos. Biz doimo ovoz ustida birga ishlaymiz, milliy cholg'u asboblarni chalish sir-asrorlarini o'rganamiz. Nasib qilsa, kelajakda o'zbek musiqa san'atini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqchiman", deydi yosh xonanda.



Shahzod Safarov institutning iqtidorli talabalaridan, tadbirlarda doimo faol, o'qish va jamoat ishlaridagi ilg'orligi boshqalarga o'rnak bo'ladi. Eng asosiysi, hozirda qo'shiqchilik sohasida ijod qilib "Meni sevib qolasan", "Vatan". "Nahotki, qalamdanmu?" kabi mualliflik taronalarini yozgan va o'z muxlislariga ega bo'lmoqda.



Yosh iste'dodli Shahzod Safarovga yanada ulkan ijodiy parvozlar tilaymiz!

Dostonbek RAHMATULLAYEV
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti matbuot xizmati kotibi